

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati: kurash
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati: kurash

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: CHORSHAMIYEV NURIDDIN ABDIALIMOVICH

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Fan doktori (DSc)



A'zo: MUXAMMADIYEV KOMIL BURXONOVICH

Xalqaro kurash instituti

Fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	1037
Xulosa sanasi	07.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Litsenziya: № 1359849, 25.05.2021. Guvohnoma: MAS № 0000381, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: kurash
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1359849, 25.05.2021
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati: kurash
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Kurash
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность: кураш
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

O'rganilgan hujjatlar va taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari kompleks baholandi. Tahlil natijalari tashkiliy-boshqaruv tizimi zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirilganini, "Jismoniy madaniyat" kafedrası nizomi tasdiqlangani, rivojlantirish yo'l xaritasi, xavflar tahlili hamda ichki sifat monitoringi mexanizmlarining amaliyotga joriy etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturini rejalashtirish, boshqarish va monitoring qilish jarayonlari amaldagi me'yoriy talablar asosida tashkil etilgani, mas'ul tarkibiy tuzilmalar o'rtasidagi vakolat va vazifalar aniq taqsimlangani e'tirof etildi. Rejalashtirish hujjatlarida muddatlar, mas'ul ijrochilar va miqdoriy ko'rsatkichlarning aniq belgilanishi boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini ta'minlash, natijadorlikni muntazam nazorat qilish hamda ta'lim dasturining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-uslubiy hujjatlar, malaka talablari va ta'lim dasturiga oid materiallar asosida uning mazmuni hamda kutilayotgan o'quv natijalari kompleks baholandi. Tahlil natijalari o'quv rejalari, malaka talablari va fan dasturlarining davlat ta'lim standarti hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturi mazmunida kurash sport turining nazariy-metodik asoslari va amaliy tayyorgarlik bloklari o'zaro uzviy bog'liqlikda shakllantirilgani, bitiruvchilarda "Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga

yo'naltirilgani e'tirof etildi. Milliy sport turi bo'yicha ixtisoslashgan tayyorgarlikning mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unligi, bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni akkreditatsiya mezonlarida belgilangan sifat talablariga muvofiq shakllantirilgani o'z aksini topdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish metodikasi va bilimlarni baholash tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi amaliyot kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari ishchi o'quv rejalar va sillabuslar tizimli ravishda ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni amaldagi me'yoriy talablar asosida tashkil etilgani hamda akademik halollik tamoyillari izchil joriy etilganini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash mexanizmlarining shaffof tashkil etilgani, baholash mezonlarining oldindan belgilanishi hamda o'quv natijalarini xolis baholashga qaratilgan tartiblar samarali qo'llanayotgani e'tirof etildi. Amaliy sport mashg'ulotlari natijalarini baholashning aniq va oldindan belgilangan mezonlarga asoslanishi talabalarning kasbiy-amaliy kompetensiyalarini obyektiv aniqlash, o'quv jarayoni sifatini oshirish hamda baholashning shaffofligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga to'liq mosligi bilan tavsiflandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish, ularni akademik hamda ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar va amaldagi tartiblar kompleks baholandi. Tahlil natijalari qabul jarayonlari, talabalar harakati nizomlari hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi. Qabul mezonlari va kvotalarning ochiq e'lon qilinishi, shuningdek sportchi-talabalar uchun moslashuvchan o'quv jadvali hamda zarur ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sharoitlarining yaratilgani ta'lim jarayonining ochiqligi va qulayligini ta'minlayotgani e'tirof etildi. Sport faoliyati bilan o'qish jarayonini uyg'unlashtirishga qaratilgan tartiblarning amalda qo'llanilishi talabalarning o'quv va sport natijalarini barqaror ta'minlash, ularning akademik muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash hamda individual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar

faoliyatini tashkil etish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi xulosa qilindi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati hamda kasbiy rivojlanishiga oid hujjatlar kompleks baholandi. Tahlil natijalari kafedra tarkibida DSc va PhD ilmiy darajasiga ega professor-o'qituvchilar hamda yetakchi murabbiylar faoliyat yuritayotganini, ilmiy darajali kadrlar ulushi belgilangan 35 foizlik minimal me'yoridan yuqori ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish tizimi va ilmiy-pedagogik faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarining izchil yo'lga qo'yilgani e'tirof etildi. Nazariy bilimlarning amaliy murabbiylik tajribasi bilan uyg'unlashuvi talabalarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, sport tayyorgarligi sifatini oshirish hamda ta'lim dasturining samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslari salohiyati akkreditatsiya mezonlarida belgilangan sifat talablariga muvofiq darajada shakllantirilgani qayd etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud infratuzilma kompleks ravishda baholandi. O'rganish natijalari moddiy-texnik baza zamonaviy talablar va davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq shakllantirilganini, kurash zallari, sport majmuasi, zamonaviy jihozlangan o'quv xonalari, axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhitining ta'lim dasturi ehtiyojlarini to'liq qamrab olishini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalarining nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish, axborot-resurslardan samarali foydalanish hamda o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani e'tirof etildi. Ixtisoslashgan sport infratuzilmasining mavjudligi amaliy tayyorgarlik samaradorligini oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va bitiruvchilarning malakaviy tayyorgarligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilganligi xulosa qilindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro sport hamkorligi va almashinuv dasturlari imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Sport yo'nalishi bo'yicha o'zbek tilidagi zamonaviy o'quv adabiyotlari ulushini oshirish zarur.
- ✓ Ilmiy-tadqiqot natijalarini xalqaro nashrlarda e'lon qilishni faollashtirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlik va almashinuv dasturlarini kengaytirish.
- ✓ Kurash yo'nalishi bo'yicha zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar fondini boyitish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy nashrlardagi ishtirokini rag'batlantirish.
- ✓ Sport infratuzilmasini rivojlantirish rejalarining ijrosini monitoring qilib borish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Oriental universitetida 61010200 – “Sport faoliyati: kurash” bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgani, o'quv jarayoni akademik halollik tamoyillari va shaffof baholash mexanizmlari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar salohiyati, o'quv-uslubiy ta'minot, axborot-resurs bazasi hamda sport infratuzilmasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgani aniqlandi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta bob bo'yicha belgilangan barcha yo'nalishlar hamda 27 ta mezonning barchasi muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim kamchiliklar ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishiga salbiy

ta'sir ko'rsatmaydigan hamda takomillashtirish choralari orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan xususiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq javob berishi asoslandi va u muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

